

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOSH-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM JARAYONI

Islamova Bibicharos Nurqosim qizi

Samarqand viloyati Jomboy tumani 54-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida ularni hisobga olishning ilmiy va amaliy asoslari yoritilgan. Kognitiv rivojlanish, emotsional holat, motivatsiya, ijtimoiylashuv jarayoni va o'qish faoliyatining psixologik jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, samarali ta'limni tashkil etishda o'qituvchi, maktab psixologi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, yosh psixologiyasi, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, diqqat, xotira, emotsiya, ta'lim jarayoni, psixologik xususiyatlar, o'qitish metodlari.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (odatda 6–10 yosh oralig'i) psixik rivojlanishning muhim bosqichida bo'lib, bu davrda ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy xususiyatlari tez o'zgaradi. Ushbu davr ta'lim faoliyatining shakllanishi, o'qishga munosabatning rivojlanishi va shaxsning asosiy psixologik sifatlarini shakllanishi bilan tavsiflanadi. Yosh-psixologik jihatdan bu davrda diqqatning ixtiyoriyligi endi shakllanayotgan bo'ladi. O'quvchilar ko'proq tashqi stimullarga tayanadi, shu sababli dars jarayonida ko'rgazmalilik, o'yin elementlari va qisqa faoliyat turlari samarali hisoblanadi. Diqqatning barqarorligi asta-sekin rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari (7–10 yosh) psixologik jihatdan yuqori harakatchanlik, taqlid qilishga moyillik hamda kuchli emotsional kechinmalar bilan tavsiflanadi. Bu yoshda diqqat va xotira asosan ixtiyorsiz ravishda ishlaydi, tafakkur esa ko'rgazmali-obrazli bosqichdan asta-sekin mantiqiy va mavhum fikrlashga o'tib boradi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun bolalarning yoshga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Shu asosda dars jarayonini quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Bilish jarayonlari va o'qitish usullari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat barqarorligi past bo'lib, ular uzoq vaqt bir xil faoliyat bilan shug'ullana olmaydi. Shu sababli dars davomida faoliyat turlarini tez-tez almashtirish, har 10–15 daqiqada qisqa tanaffuslar va harakatli mashqlarni qo'llash foydalidir.

Ularning xotirasi va idroki ko'proq ko'rish orqali qabul qilishga tayanganligi uchun darslarda turli ko'rgazmali vositalar, jadvallar, rasmlar va interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

Shuningdek, nutqni rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlar, hikoya tuzish va rolli o'yinlar muhim ahamiyatga ega.

2. Emotsional-irodaviy rivojlanish

Bu yoshdagi bolalar tez charchashi va hissiyotlarini to'liq nazorat qila olmasligi bilan ajralib turadi. O'qituvchi bahosi va munosabati ular uchun kuchli motivatsiya manbai hisoblanadi. Shu bois dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash usullaridan samarali foydalanish zarur.

3. Motivatsiya va ijtimoiy moslashuv

1-sinflarda o'yin faoliyatiga qiziqish ustun bo'lsa, yuqori sinflarga o'tgan sari bilim olishga intilish va ijtimoiy burch hissi shakllanadi. Shu jarayonda o'quvchilarga mustaqil tanlov imkonini berish, guruhlarda ishlashni tashkil etish ularning faolligini oshiradi.

4. Individual yondashuv

Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlari va temperamentini inobatga olish ta'lim samaradorligini oshiradi. Topshiriqlarni individual qobiliyatlarga moslashtirish bolalarning imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik holatini to'g'ri tushunish, ularga hurmat va qo'llab-quvvatlash bilan yondashish ta'lim jarayoni sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Xotira jarayonlari ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq mexanik eslab qolishga moyil bo'ladilar. Biroq ta'lim jarayonida mantiqiy xotirani rivojlantirish, materialni tushunib yodlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Kognitiv rivojlanish nuqtai nazaridan Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich sinf davri "konkret operatsiyalar bosqichi"ga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalar real, ko'rgazmali va amaliy vaziyatlarda fikrlashni yaxshi amalga oshiradilar, abstrakt tushunchalarni esa hali to'liq anglashda qiyinchilik sezadilar.

Emotsional sohada bolalar juda ta'sirchan, tez xursand bo'ladigan va tez ranjiydigan bo'ladilar. O'qituvchining bahosi, rag'batlantirish va tanqidga nisbatan sezgirlik yuqori bo'ladi. Shu sababli pedagogik muloqotda ijobiy yondashuv, qo'llab-quvvatlash va motivatsion usullar muhim o'rin tutadi. Motivatsiya boshlang'ich sinfda asosan tashqi omillarga (baholar, maqtov, ota-ona va o'qituvchi fikri) bog'liq bo'ladi. Keyinchalik ichki o'quv motivatsiyasini shakllantirish — bilimga qiziqish va o'zini rivojlantirishga intilish — ta'lim jarayonining asosiy vazifasidir.

Ijtimoiy jihatdan bu davrda bola tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishni o'rganadi, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'qituvchi esa bu jarayonda yetakchi rol o'ynab, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini singdiradi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun individual yondashuv, differensial ta'lim, o'yin texnologiyalari, vizual vositalar va interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu bolalarning qiziqishini oshiradi va o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Maktab psixologi esa o'quvchilarning psixologik rivojlanishini kuzatib boradi, moslashuv muammolarini aniqlaydi va korreksion ishlar olib boradi. Ota-onalar bilan hamkorlik esa bolaning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqiy va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Shu jihatdan o'quvchilar shaxsini shakllantirishda ularning psixologik xususiyatlari, xarakteri, individual imkoniyatlari va bilish jarayonlarini chuqur o'rganish katta ahamiyatga ega. Chunki har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni, bilim va ko'nikmalarni o'ziga xos tarzda qabul qiladi va o'zlashtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra ishonuvchan, ta'sirga beriluvchan hamda kattalarga nisbatan kuchli ishonch bilan qaraydigan bo'ladilar, shu sababli o'qituvchining har bir so'zi va xatti-harakati ular uchun haqiqat mezon sifatida qabul qilinadi. Bu esa pedagog zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi, chunki aynan shu davrda bolada axloqiy sifatlar, odob-axloq me'yorlari va shaxsiy fazilatlar shakllana boshlaydi.

Mutafakkirlar ta'kidlaganidek, inson fe'l-atvori asosan bolalik davrida shakllanadi va shu davrda hosil bo'lgan sifatlar uning keyingi hayotida mustahkam "ikkinchi tabiat"ga aylanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy jarayonning asosiy yo'naltiruvchisi sifatida ham faoliyat yuritadi, u o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, ezgu his-tuyg'ularini qo'llab-quvvatlashi va ijtimoiy jihatdan foydali xulq-atvorni shakllantirishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan mazmunli suhbatlar, muhokamalar, savol-javoblar va amaliy faoliyatlar bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlari dastlab keng va beqaror bo'lib, ular atrof-muhitdagi barcha narsaga qiziqish bilan qaraydilar, keyinchalik esa bu qiziqishlar asta-sekin barqarorlashib, sabab-oqibatni tushunishga, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yo'naltiriladi. Shu jarayonda bolalarning tafakkuri ham rivojlanib boradi: ular oddiy savollardan murakkabroq "nima uchun?", "qanday qilib?" kabi savollarga o'tadilar, bu esa ularning mantiqiy fikrlashining shakllanayotganidan dalolat beradi. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi ham bosqichma-bosqich rivojlanadi, avval ertak va rasmlarga qiziqish kuchli bo'lsa, keyinchalik ilmiy, sarguzasht va ma'rifiy kitoblarga qiziqish ortadi.

Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish juda muhim, chunki bir o'quvchiga mos kelgan tarbiyaviy usul boshqasida bir xil natija bermasligi mumkin, shuning uchun pedagogik jarayon individual yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. O'qituvchi har bir bolaning psixologik holatini to'g'ri tahlil qila olishi, uning qobiliyatlarini aniqlashi va rivojlantirishi orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf davrida bolalarning bilish jarayonlari, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy tafakkuri tez rivojlanadi, ular kuzatuvchanlik va ijodiy fikrlashga moyil bo'ladilar. Shu sababli ta'lim jarayoni ko'rgazmali, qiziqarli va faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, chunki bunday yondashuv o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy va intellektual rivojlanishi bevosita o'qituvchining pedagogik mahorati, psixologik bilimlari va individual yondashuviga bog'liq bo'lib, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va samarali hal etish mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish ham muhimdir.

Ta'lim jarayonida ular, maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har – xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko'nikma, malakalar yetarli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgach bola o'z atrofidaqlar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi.

Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lamini kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o'rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq unga bo'lgan munosabat va talablar orqali o'ziga xos bo'lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkam ma'suliyat hissini yuklaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Diqqat, xotira, emotsiya va motivatsiya xususiyatlarini to'g'ri yo'naltirish orqali

bolalarning o'quv faoliyatini rivojlantirish mumkin. O'qituvchi, psixolog va otananing hamkorligi esa barkamol shaxsni shakllantirishning asosiy shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
2. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
3. Nishonova Z.T. Do'stmuxammedova Sh.A. To'lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya.
4. Toshkent 2011-y
5. Muminova, Sobirova va boshqalar.«Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
6. Ziyonet